



YOL TRANSPORT XODISALARI VA ULARNI OG'IR OQIBATLARINI OLDINI OLISH

Toshkent tumani 1 son politexnikum

*Maxsus fan o'qituvchisi **Maxmudov Ahmad Kadirovich***

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola hozirgi kundagi davlat siyosati darajasidagi juda dolzarb masala hisoblanadi. Hozirgi kunda statistik ma'lumotlarga asoslangan holda, yo'l transport hodisasi natijasida ko'plab yurtdoshlarimiz bevaqt olamdan ko'z yumishmoqda. Yo'l harakati qatnashchilarining hayoti, sog'lig'iga va mol-mulkini himoya qilish samaradorligini amalga oshirishni taqozo etadi. Mazkur masalada davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilib, sohaning huquqiy mehanizmi mustahkamlangani va ular ular asosida bir qator ishlar amalga oshirilayotganligi diqqatga sazovordir. Yo'l transport hodisalarini kamaytirish uchun avvalo avtomaktablardagi o'qitish ishlarini to'g'ri tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Kalit soz'lar: Qoida, yo'l, haydovchi, piyoda, yo'l transporti hodisasi, qatnov qismi, avtomobil, muxit, piyoda, o'quvchi.

Kirish:

Hozirgi paytda yo'l transport xodisalari oqibatida qancadan qancha insonlar hayotdan bevaqt ko'z yumib, yoki nogironlik kursisiga butun umur mixlanib qolishmoqda. Kimdir onam, otam, bolam deb dod faryod chekib qolishiga sababchi ayrim qoidalarni mensimaydigan, tezlikni me'yoridan oshirib harakatlanadigan haydovchilar sababchi bo'lib qolishmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra har yili yurtimizda 2600 tadan ortiq inson yo'l transport hodasi oqibatida hayotdan ko'z yummoqda. Ming minglab insonlar nogironlik kursisiga o'tirib qolishmoqda.

Yo'l transport xodisalarini oldini olish va buning og'ir oqibatlarini kamaytirish bo'icha, hukumatimiz mutasadi tashkilotlari tomonidan ijoboy ishlar amalga oshirilmoqda va tegishli qarorlar qabul qilinmoqda.



Hech bir haydovchi yo'ga chiqishidan oldin yo'l transporti hodisasini sodir qilaman deb chiqmaydi. Yo'l transport hodisasini sodir bo'lishiga, qopol ravishda bilib yoki bilmasdan qoidani buzib, ko'pgina insonlarni umriga zomin bo'lishmoqda. Buning asl sabablari nimada ekanligi har bir sog'lom fikrlaydigan insonni chuqur o'ygatadi. Yo'l transport xodisalarini kelib chiqishi bir qancha faktorlarga va haydovchining ushbu holatga qanchalik tayyorligiga bog'liq. Haydovchiga bog'liq bo'lmagan sabablardan; yo'l infratuzilmasini yaxshi emasligi, yo'l belgilari va chiziqlarining etishmasligi va undagi ayrim xatoliklar, ob-havo sharoiti va hakoza.

Haydovchiga bog'liq faktorlar; yo'l harakati qoidalarini yaxshi o'zlashtirmagan, qoidalarini biladi lekin buzadi, shoshma-shosharlik, sabirsizlik, charchoq alomatlari natijasi, kibirlilik, stres holatda avtomobilni boshqarish, tajriba etishmasligi, avtomobilni guvohnopmasiz boshqarish, mast holatda boshqarish va boshqa bir qancha misollar keltirish mumkin.

Avtomaktablarni faoliyatiga nazar tashlasak. Ayrim xususiy sektordagi avtomaktablarda tasischi nomutaxassis, raxbari mutaxassis bo'lishi mumkin. Raxbar to'g'ri ishlashga harakat qiladi, lekin tasischi bunga yo'l qo'ymaydi, natijada o'quvchilardan sifatli haydovchi chiqmaydi. Nazariy mashg'ulotlar yo'l harakati qoidalarini va avtotest savollarini yodlatish bilan mashg'ul. Test savollarini yodlash bilan sifatli haydovchi chiqmaydi. Tinglovchilarga harakat xavfsizligi qoidalarini ham mukammal o'rgatish lozim. Bundan tashqari avtomobillarni tuzilishi va hozirgi paytda eng dolzarb bo'lgan haydovchilarning madaniyati bo'yicha darslarni o'tishni jiddiy tashkil qilish maqsadli bo'ladi.

Ayrim xususiy avtomaktab o'qituvchi xodimlari orasida o'rta maxsus malumotga ega bo'lgan xodimlar ham topiladi. Bunday o'qituvchilar yo'l harakati qoidalarini yaxshi bilishi mumkin, lekin boshqa fanlar ham borku. Haydovchilarni tayyorlash faqat avtotest ishlatib, yodlatib natijaga erishilsa bo'ldi degani emas.

Avtomobilni amaliy boshqarishga o'rgatish ham ayrim maktablarda yaxshi yo'lga qoyilmagan. Asosan yopiq maydonlarda qolib ketishmoqda. Haydovchi sifatli o'qishni bitirib haydovchilik guvohnomasini olsa, yo'l transport hodisalarini kamayishiga erishiladi.



Yo'l harakatining muommolari va maxsus tomonlari, eng avvalo. "Avtomobil-Haydovchi-Yo'l-Piyoda -Muxit" tizimi orqali belgilanadi.

Ular o'z navbatida atrof muxitga faoliyat ko'rsatadilar. Bu tashkiliy qismlar faoliyat ko'rsatib gina qolmasdan, atrof muxit bilan ularning har biri bilan chambarchast bog'liq bo'ladi.

Endi bu tizimdagi tushunchalarning yo'l transport xodisalarini kelib chiqishiga qanchalik ta'siri borligini tahlil qilamiz.

Avtomobil-Haydovchi avtomobilni har doim texnik holatini soz holatda olib yurishi shart va zarur. Agar texnik xizmat o'z vaqtida amalga oshirilmasa, yo'l transport hodisasi kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Yo'l - Yo'l infratuzilmasini yaxshilash uchun tegishli tashkilotlar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Ayrim hududlarda masulyatsiz raxbar va tashkilotlar ham topiladi.

Piyoda-Afsuski piyodalar orasida oxirgi paytlarda qoida buzarlik ko'paymoqda. Belgilanmagan joylardan yo'lni kesib o'tish, to'siq orqasidan to'satdan chiqib qolishi, etarli ko'rinmaslik sharoitlarida qatnov qismidan harakatlanish va boshqa hatti harakatlarni qilmasligini, har bir insonga oiladan boshlab bog'cha va maktablarda o'gatilishi kerak. Ayrim katta yoshli piyodalar o'zlari bolalarini qo'llaridan ushlab belgilanmagan joylardan o'tadilar. Oxir oqibat yo'l transport xodisalarini kelib chiqishiga va ko'payishiga olib kelmoqda.

Muxit-Atrof muxitning yo'l harakati xavf sizligiga mujassamlashgan ta'siri tushiniladi: ob-havo (metrologik ko'rinish, yog'ingarchilik, shamol, harorat);

Tabiiy landshaft (tekislik, qir-adirlik, tog'lik, yer osti usti suvlari va h.k);

Mexanik (shovqin, chang, tebranish, gaz chiqindilari bilan ifloslanganlik va h.k)

Haydovchi - hozirgi paytda transport oqimini ko'pligi hammamizga ma'lum. SHunday ekan haydovchi avvalo o'zini yaqinlarini, va boshqa harakat qatnashchilarini hayotini xavf ostiga qoymasdan ma'sulyatni yanada oshirishi lozim.

Xulosa:



Yo'l harakati qoidalari — bu hayotimizdagi muhim jihatlardan biridir. Ular nafaqat transport vositalarining harakatini tartibga soladi, balki insonlarning hayotini saqlab qolishda ham katta ahamiyatga ega. Yo'l harakati qoidalari — bu avtomobillar, piyodalar va boshqa transport vositalarining yo'llarda harakat qilishini tartibga soluvchi qoidalar majmuasidir. Ushbu qoidalar jamiyatda xavfsizlikni ta'minlash, yo'llarda tartibni saqlash va avariyalarni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan. Har bir fuqaroga yo'l harakati qoidalariga rioya qilish tavsiya etiladi, chunki ularning barchasi bizning xavfsizligimiz uchun xizmat qiladi. O'zaro hurmat, ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan biz yanada xavfsizroq va qulayroq yo'llarni yarata olamiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi.[Matn] : o`quv qo`llanma / J.Qulmuxammedov [va boshqa.]. – Toshkent: “excellent polygraphy”, 2021.-384 b.
2. Yo'l harakati qoidalariga suratli sharxlar va mavzuga oid testlar: o`quv-uslubiy qo`llanma.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (2020). "O'zbekiston statistikasi: 2020 yilgi hisobot".
4. Karimov I.A. (1997). "O'zbekistonning mustaqillik yo'lidagi yutuqlari". Tashkent: O'qituvchi.
5. Ruziev A. (2018). "Zamonaviy iqtisodiy tizim va uning rivojlanish tendensiyalari". Tashkent: Fan.
6. Abdurahmonov S. (2019). "Ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning samaradorligi". Tashkent: Ma'rifat.
7. Gafurov A. (2021). "Ijtimoiy fanlar asoslari". Tashkent: Universitet